



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-8-40-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi tuman Kengashi va deputatlik guruhi tashabbusi bilan kiritilgan "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan 13-21-maqсадlar, "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining ijrosi yuzasidan hamda Onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash va boshqa kasalliklarni oldini olishda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida Kattaqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi boshlig'i V.Xudoyqulovning hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni, 2022-yil 25-apreldagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-215-sonli Qarori ijrosi, shuningdek, tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i V.Xudoyqulovning hisobotini tanqidiy muhokama etib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- 24- va 25^s-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi tuman Kengashi va deputatlik guruhi tashabbusi bilan kiritilgan "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan 13-21-maqсадlar, "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining ijrosi yuzasidan hamda Onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash va boshqa kasalliklarni oldini olishda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi Kattaqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi boshlig'i V.Xudoyqulovning hisoboti tanqidiy jihatdan muhokamalar natijasiga ko'ra qabul qilinmagan deb hisoblansin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) tumanda onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash va boshqa kasalliklarni oldini olish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlari yuzasidan tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i V.Xudoyqulovning hisobotini doimiy komissiya yig'ilishlarida qayta muhokama qilib tuman Kengashining navbatdagi sessiyalar muhokamasiga kiritish choralari ko'rsin.

3. Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i V.Xudoyqulov xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyalarida "“O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan 13-21-maqсадlar, “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining ijrosi yuzasidan hamda Onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta‘minlash va boshqa kasalliklarni oldini olishda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi muhokamalarga puxta tayyorgarlik ko‘rib ishtirok etishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (O.Shirinov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH